

**“Olmaliq KMK” AJning
2026 yil I chorak yakunlari bo‘yicha
TAHLILY MA’LUMOTNOMASI**

“Olmaliq KMK” AJ boshqaruv raisi – Xursanov Abdulla Xalmuradovich.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturining eng muhim ustuvor yo‘nalishlarini bajarish davomida “Olmaliq KMK” AJ jamoasi 2026-yil I chorak yakunlari bo‘yicha quyidagi tovar mahsulotlar ishlab chiqarish ko‘rsatkichlariga erishdi:

- amaldagi narxlarda 137,5 foizga erishildi.

Mis katodini ishlab chiqarish 100,0 %, metalli rux 100,0%, sulfat kislotasi 100,0%, affinjli oltin 105,1% va affinjli kumush 100,0 %ni tashkil etdi.

2026-yil yanvar-mart oylari yakunlari bo‘yicha 223,2 mln.doll. (209,2 % prognozga nisbatan) miqdorida mahsulotlar eksportga sotildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasining 2026-yilga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘grisida” 2026-yil uchun Investitsiya dasturiga “Olmaliq KMK” AJ bo‘yicha 7 ta yirik loyiha doirasida 293,6 mln dollar mablag‘larini o‘zlashtirilishi belgilangan, jumladan:

2026-yil yanvar-mart oylari yakunlari bo‘yicha 73,7 mln. dollar miqdorida (102,9% prognozga nisbatan) investitsiyalar o‘zlashtirildi.

korxonaning o‘z mablag‘lari hisobidan – 0,9 mln. doll.

to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy kreditlar – 72,8 mln. doll.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh Vazir o‘rinbosari Hukumat komissiyasi topshirig‘iga asosan “Olmaliq KMK” AJ 2026-yilda mahalliyashtirish dasturi bo‘yicha 1329,7 mlrd. so‘mlik 37 ta loyihani amalga oshirishi ko‘zda tutilgan.

2026-yil I chorak yakunlari bo‘yicha 34 ta loyiha asosida mahalliyashtirilgan mahsulotlar ko‘rsatkichi 330,8 mlrd. so‘mni yoki prognozga nisbatan 102,9 foizni tashkil etdi.

2026-yilga mo‘ljallangan ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish bo‘yicha tashkiliy-texnik chora-tadbirlar kompleksi ishlab chiqilgan bo‘lib, unda ishlab chiqarish xarajatlarini 2301,5 mlrd. so‘mga yoki 13,2 foizga qisqartirish ko‘zda tutilgan.

2026-yil I chorak yakunlari bo‘yicha ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish chora-tadbirlari kompleksini amalga oshirishdan kutilayotgan natija 553,3 mlrd. so‘mni yoki 14,8 foizni, shu jumladan ishlab chiqarish tannarxi 403,4 mlrd. so‘m yoki 10,8 foizni tashkil etishi kutilmoqda.

Kombinatda boshqaruvni takomillashtirish, moliyaviy-iqtisodiy ahvolni mustahkamlash, debitorlik va kreditorlik to‘lovlarini kamayishini ta‘minlash tadbirlari amalga oshirilib kelinadi.

2026-yil 1 aprel oyi holatiga kombinatning kutilayotgan debitorlik qarzlari 4167,6 mlrd. soʻmni, kreditorlik qarzlari 6862,5 mlrd. soʻmni tashkil etishi kutilmoqda.

Byudjetga yoki ish haqiga nisbatan qarzidorlik mavjud emas.

Ishchi-hodimlarni texnik tayyorlash dasturiga muvofiq kadrlarning malakasini oshirish uchun 1628 nafar, qayta tayyorlash va ikkinchi mutaxassislikni oʻzlashtirish boʻyicha 621 nafar, rahbar va mutaxassislarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash boʻyicha 685 nafar, shu jumladan, ishlab chiqarishdan tashqari 282 nafar kishi oʻqitildi.

“Olmaliq KMK” AJ Oʻzbekiston Respublikasidagi 10 ta oliy oʻquv yurti va Rossiya Federatsiyasining MTTU “MISiS” universiteti va filiallari bilan oliy maʼlumotli mutaxassislar tayyorlash boʻyicha hamkorlikni olib boradi.

Hozirgi kunda umumiy talabalar soni 31 nafarni tashkil etmoqda, bular kunduzgi boʻlimlarida taʼlim olmoqda.

Hisobot davrida jami 448 nafar, jumladan oliy taʼlim bitiruvchilari 137 nafar, kollej bitiruvchilari 242 nafar va maʼlumotsiz 67 nafar kishi ish bilan taʼminlandi.

Yuqori turuvchi tashkilotlarining topshiriqlarini oʻz vaqtida bajarish, ijro intizomini nazorat qilish tizimini takomillashtirish maqsadida “Olmaliq KMK” AJ Ijro apparatida yuqori tashkilot topshiriqlarini bajarilishini nazorat qilish xizmati tashkil etilgan va ijro intizomi holatini tizimli va tanqidiy tahlil qilish tartibi belgilandi.

Yil davomida Oʻzbekiston Respublikasi Qonunlari, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti xujjatlari va hukumat qarorlarining joylardagi ijrosini oʻrganish ishlari amalga oshirish mobaynida hisobot tizimini joriy etish va belgilangan muddatlarda hujjatlar ijrosi ustidan nazoratni tashkil etish ishlari olib borilmoqda. Kombinatsining ish rejasiga asosan analitik hisobotlar tayyorlanib bayonnomalar tuzib borilmoqda.

Qarorlari ijrosini tanqidiy tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish boʻyicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish boʻyicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

2026 yil I chorak yakunlari boʻyicha jami 1821 ta hujjat kirim qilingan, shu jumladan:

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va topshiriqlari 43ta – (3 ta farmon, 1 ta qaror, 1 ta farmoyish, 1 ta baen, 37 ta topshiriq);

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hujjatlari va topshiriqlari 139 ta, (7 ta qaror, 1 ta farmoyish, 32 ta bayon) Bosh vazir, uning oʻrinbosarlari va maslahatchilari topshiriqlari – 47 ta, kotibiyat topshiriqlari –52 ta kirim qilingan.